

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

"SUV VA SUVDAN FOYDALANISH TO'G'RISIDA"GI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNIGA O'ZGARTISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH HAQIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 10-avgustda qabul qilingan
Senat tomonidan 2021-yil 21-oktabrda
ma'qullangan

1-modda. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-mayda qabul qilingan "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi 837-XII-sonli [Qonuniga](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, № 5, 221-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil, № 4-5, 126-modda; 1998-yil, № 9, 181-modda; 2000-yil, № 7-8, 217-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-yil, № 12, 604-modda; 2009-yil, № 12, 472-modda; 2011-yil, № 1, 1-modda, № 9, 247-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda; 2014-yil, № 9, 244-modda; 2016-yil, № 12, 383-modda; 2017-yil, № 9, 510-modda; 2018-yil, № 4, 224-modda, № 7, 431-modda; 2019-yil, № 5, 261-modda, № 11, 791-modda; 2020-yil, № 9, 539-modda; 2021-yil, 4-songa ilova) quyidagi o'zgartish va qo'shimchalar kiritilsin:

1) 2¹-modda:

[sakkizinchi xatboshisidagi](#) "suv obyektidan" degan so'zlar "suv obyektidan yoki suv xo'jaligi obyektidan" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi o'n beshinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"suv xo'jaligining foydalanuvchi tashkilotlari — suv xo'jaligi obyektlaridan foydalanuvchi suv xo'jaligining foydalanuvchi tashkilotlari (tumanlarning irrigatsiya bo'limlari, irrigatsiya tizimi boshqarmalari, magistral kanallar (tizimlar) boshqarmalari, nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari, meliorativ ekspeditsiyalar, suv omborlaridan va yirik gidrotexnika inshootlaridan foydalanish boshqarmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari);

[o'n beshinchi](#) — [o'n to'qqizinchi xatboshilar](#) tegishinchasi o'n oltinchi — yigirmanchi xatboshilar deb hisoblansin;

quyidagi mazmundagi o'n to'qqizinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"suv yetkazib bergenlik va boshqa suv xo'jaligi xizmatlari uchun haq to'lash — suv ta'minoti tashkilotlari (suv xo'jaligining foydalanuvchi tashkilotlari, suv iste'molchilari uyushmalari va boshqalar) tomonidan ko'rsatiladigan suv yetkazib berish bo'yicha xizmatlar va boshqa suv xo'jaligi xizmatlari (suv xo'jaligi obyektlarini ta'mirlash, suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy etish, suvni boshqarish va hisobga olish vositalaridan foydalanishda ko'maklashish) uchun shartnomaga asosida to'lovlnarni amalga oshirish";

[o'n to'qqizinchi](#) va [yigirmanchi xatboshilar](#) tegishinchasi yigirmanchi va yigirma birinchi xatboshilar deb hisoblansin;

2) 6-modda:

[sakkizinchi xatboshisi](#) quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"suv xo'jaligi sohasida davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish";

quyidagi mazmundagi to'qqizinchi va o'ninchi xatboshilar bilan to'ldirilsin:

"suv xo'jaligini rivojlantirish, suvdan oqilona foydalanish, suvdan samarali foydalanish, suv tanqisligining salbiy ta'sirini yumshatishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, suv va suvdan foydalanishga doir boshqa dasturlarni tasdiqlash;

suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tartibini tasdiqlash";

to'qqizinchi xatboshisi o'n birinchi xatboshi deb hisoblansin;

3) 7-modda:

quyidagi mazmundagi beshinchi va oltinchi xatboshilar bilan to'ldirilsin:

"suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish bo'yicha aniq yo'naltirilgan ro'yxatlarni shakllantirish va tasdiqlashda, shuningdek ularning amalga oshirilishini nazorat qilishda ko'maklashish;

suv iste'molchilari uyushmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga riosa etilishini ta'minlash, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlarini ta'mirlash hamda tiklash, tomorqa yerlariga suv yetkazib berish tadbirlarini amalga oshirishda ko'maklashish";

beshinchi va oltinchi xatboshilar tegishinchasi yettinchi va sakkizinchi xatboshilar deb hisoblansin;

4) 8-moddaning ikkinchi qismidagi "Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi" degan so'zlar "Suv xo'jaligi vazirligi" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

5) 9-moddaning ikkinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini mahalliy davlat hokimiyati organlari, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi, O'zbekiston Respublikasi Sog'lioni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi huzuridagi Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiradi";

6) 11-modda birinchi qismining o'zbekcha matnidagi "oqindi" degan so'z "oqova" degan so'z bilan almashtirilsin;

7) 16-moddaning:

birinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Suv obyektlaridan o'tadigan ko'priklar, o'tish yo'llarini va boshqa transport kommunikatsiyalarini qurish hamda rekonstruksiya qilish loyihalari suv xo'jaligi, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, suv xo'jaligi obyektlarining xavfsizligini nazorat qilish organlari, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda zarur hollarda, energetika, arxitektura va qurilish organlari, O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi bilan (daryo transporti yuzasidan) kelishib olinishi lozim, shuningdek toshqin suvlarini o'tkazib yuborishni, suv obyektlaridan foydalanish rejimini, suvlarning ifloslanishiga, bulg'anishiga va kamayib ketishiga yo'l qo'ymaslikni, ularning zararli ta'sirining oldini olishni ta'minlovchi tadbirlar o'tkazilishini nazarda tutishi kerak";

ikkinchi qismidagi "qishloq va" degan so'zlar chiqarib tashlansin;

8) 18²-modda:

to'rtinchi qismidagi "qishloq va suv xo'jaligi organlari" degan so'zlar "suv xo'jaligining foydalanuvchi tashkilotlari" degan so'zlar bilan almashtirilsin;

quyidagi mazmundagi beshinchi va oltinchi qismlar bilan to'ldirilsin:

"Suv iste'molchilari uyushmalarining faoliyatini moliyalashtirish o'z a'zolarining har yillik a'zolik badallari, shartnoma asosida suv yetkazib bergenlik va boshqa suv xo'jaligi xizmatlari uchun to'lovlardan, shuningdek qonunchilikda taqiqilanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Suv iste'molchilari uyushmalari suvdan foydalanish qoidalari buzilgan, suvdan maqsadsiz foydalanilgan taqdirda, shuningdek limitdan ortiqcha suv olingan, a'zolik badallari, suv yetkazib bergenlik va boshqa suv xo'jaligi xizmatlari uchun to'lovlardan o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda, qonunning hamda shartnoma shartlarining aniqlangan buzilishlari bartaraf etilguniga qadar suv iste'molchilariga suv yetkazib berishni to'xtatishga haqli";

9) 19-moddaning matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Suv obyektlari yoki ularning qismlari suvdan foydalanish obyektlari bo'lishi va qonunchilikda belgilangan tartibda davlat-xususiy sheriklik prinsiplari hamda boshqa shartlar asosida

foydalanishga berilishi mumkin, bundan suv omborlari, sel-suv omborlari, shuningdek yirik va alohida muhim suv xo'jaligi obyektlari mustasno”;

10) **21-moddaning:**

to'rtinchi qismidagi “Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi” degan so'zlar “Suv xo'jaligi vazirligi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

sakkizinchi qismidagi “qishloq va” degan so'zlar chiqarib tashlansin;

o'ninchi qismining o'zbekcha **matnidagi** “Oqindi” degan so'z “Oqova” degan so'z bilan almashtirilsin;

11) 27-moddaning **ikkinchi** va **uchinchi qismlari** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tabiiy suv obyektlarining suvidan maxsus foydalanish yoki ularning suvini maxsus iste'mol qilish uchun ruxsatnoma yer usti suvlari bo'yicha — suv xo'jaligi organlari bilan kelishilgan holda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organlari, yer osti suvlari bo'yicha — geologiya va mineral resurslar organlari tomonidan beriladi.

Sun'iy suv obyektlarining suvidan maxsus foydalanish yoki ularning suvini maxsus iste'mol qilish uchun ruxsatnoma:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligiga, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalariga, magistral kanallar (tizimlar) boshqarmalariga, suv omborlaridan foydalanish boshqarmalariga, transchegaraviy suv obyektlaridan, viloyatlararo ahamiyatga molik suv obyektlaridan, katta va alohida muhim suv xo'jaligi obyektlaridan foydalanuvchi tashkilotlarga, nasos stansiyalari, energetika va aloqa boshqarmalariga, melioratsiya ekspeditsiyalariga, shuningdek boshqa suvdan foydalanuvchilarga va suv iste'molchilariga — respublika yoki viloyatlararo ahamiyatga molik suv obyektlaridan O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan;

irrigatsiya tizimlari boshqarmalariga, shuningdek boshqa suvdan foydalanuvchilarga va suv iste'molchilariga — viloyat yoki tumanlararo ahamiyatga molik suv obyektlaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari tomonidan;

suv iste'molchilarini uyushmalariga, shuningdek boshqa suvdan foydalanuvchilarga va suv iste'molchilariga — tuman ahamiyatiga molik suv obyektlaridan tuman (Quvasoy shahar) irrigatsiya bo'limlari tomonidan;

o'zları xizmat ko'rsatadigan zonada joylashgan fermer va dehqon xo'jaliklariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga hamda boshqa suv iste'molchilariga — qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun suv obyektlaridan tuman (Quvasoy shahar) qishloq xo'jaligi bo'limi bilan kelishilgan holda suv iste'molchilarini uyushmalari tomonidan beriladi”;

12) 29-moddaning **matnidagi** “qishloq va” degan so'zlar chiqarib tashlansin;

13) 30-moddaning **ikkinchi qismidagi** “qishloq va” degan so'zlar chiqarib tashlansin;

14) **31-moddaning:**

birinchi qismidagi “vaqtincha foydalanish” degan so'zlar “vaqtincha, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida foydalanish” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

uchinchi qismi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Suvdan vaqtincha foydalanish muddati uch yildan kam bo'lmasligi va qirq to'qqiz yildan oshmasligi kerak”;

15) 35-modda **birinchi qismi**:

beshinchi xatboshisining o'zbekcha **matnidagi** “oqindi” degan so'z “oqova” degan so'z bilan almashtirilsin;

o'ninchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“suvni tejash va raqamli texnologiyalarni joriy etish choralarini ko'rishi”;

16) 35¹-modda birinchi qismi **beshinchi xatboshisining** o'zbekcha matnidagi “oqindi” degan so'z “oqova” degan so'z bilan almashtirilsin;

17) 44-moddaning **ikkinchi qismi** quyidagi tahrirda bayon etilsin: